

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**



**« TASDIQLAYMAN»**

Direktorlar kengashi raisi

L.X.Musadjanova

2025-y « 5 » 03

**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

**TEZ TIBBIY YORDAM DISPETCHERI**

(sikli bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

**O'QUV DASTURI**

**(144-kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChILAR:**

L.X.Musadjanova

Respublika o'rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va  
ularni ixtisoslashtirish markazi  
direktori,t.f.d. professor

N.I. Maxmudova

Respublika tez tibbiy yordam markazi  
Toshkent shahar filiali  
Tezkor ishlar bo'yicha direktor  
o'rinbosari

**TAQRIZChILAR:**

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

I.N.Aslonov

Respublika tez tibbiy yordam markazi  
Toshkent shahar filiali direktori, dotsent

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

2025« 1 » 03

2/1 - sonli bayonnoma

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga  
tavsiya etildi.

2025« 5 » 03

2 - sonli bayonnoma

## **Kirish.**

Mamlakatimizda oʻrta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida oʻrta tibbiyot xamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur oʻquv dasturi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika taʼlimi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ - 4310-sonli qaror, Oʻzbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabr OʻRQ-637-son “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ 4666-sonli qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish boʻyicha meʼyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish toʻgʻrisidagi” buyrugʻi va Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “Oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qoʻyiladigan Davlat talablari” ijrosini taʼminlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturni yaratishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 16 may PF-4985-son «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi» farmoni, 2017-yil 19-iyuldagi 526-son Vazirlar Mahkamasining “Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallarining Muvofiqlashtiruvchi-dispatcherlik xizmatlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari dasturi”, va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 iyundagi “Aholiga Tez tibbiy yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida PQ-283son qarori mazmunidan foydalanilgan. Sogʻliqni saqlash tizimida tez tibbiy dispatcherlarning asosiy vazifasi chaqiruvlarni qabul qilish, bemor holatiga koʻra saralash, tegishli brigadani yuborish, dori vositalari sarfini nazorat qilish, bunda yagona elektron avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimidan (Call-markazdan) foydalanish va tibbiy yordamni yaqinlik boʻyicha yetkazishni tashkil etishdan iborat boʻlib, oʻquv dasturida aks etilgan. Dasturda oʻquv fanning mazmuni, uni oʻzlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. “Tez tibbiy yordam dispatcheri” oʻquv dasturi yoʻnalishining oʻquv rejasi asosida tayyorlangan boʻlib, tez tibbiy yordam stantsiyalari dispatcherlari va feldsherni 144 kredit malaka oshirishlari uchun moʻljallangan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan boʻlib, kasbiy rivojlanish moduli maʼnaviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sogʻliqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendentsiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari toʻgʻrisida maʼlumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va boʻlimlarni ketma-ketligini taʼminlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan oʻquv materiallarini qamrab olgan. Dasturda tez tibbiy yordam stantsiyalari dispatcherlarini malakaviy tavsifnomasi va lavozim yoʻriqnomalariga muvofiq, lozim boʻlgan yangi

bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

### **1.1. Maqsad:**

O'qish natijasida "Tez tibbiy yordam dispetcheri" bo'yicha faoliyat olib boradigan tibbiy hodimlarning mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, tez tibbiy yordamning tezkorligini, texnologiyasini va samaradorligini tubdan kuchaytirish, tez tibbiy yordam tizimi faoliyatini chuqur o'rgatish, dispetcherning o'rnini va mas'uliyatini tushuntirish, telefon orqali bemorning holatini baholash bo'yicha zamonaviy algoritmlar va standartlarni o'rgatish, aholiga birinchi yordamni telefon orqali ko'rsatma berish. Tumanning barcha hududlari bo'yicha tez tibbiy yordam chaqiriqlarini qabul qilish va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash, tez tibbiy yordam xizmati sayyor brigadalari faoliyatini tezkor boshqarish va muvofiqlashtirish, boshqa shoshilinch tezkor xizmatlari bilan bog'lanishini va o'zaro hamkorlikni ta'minlash ko'nikmalarini takomillashtirish. Shu bilan bir qatorda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

### **1.2. Vazifalar:**

- umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va Respublika tez tibbiy yordam markazi, Toshkent shahar filiali tez tibbiy yordam stansiyalaridada, tez tibbiy yordam bo'limlarida dispetcherlik faoliyati uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- axborot tizimida xatosiz ishlash;
- tez tibbiy yordam xizmati ixtisoslashtirilgan avtotransportini zamonaviy tibbiy uskunalar va raqamli radioaloqa vositalari (ratsiyalar) bilan radio-aloqa, telefon aloqasi (Planshetlar) GPS-navigatsiya tizimi bilan ishlashini o'rgatish;
- chaqaruv kartalarini to'ldirish, ma'lumotlarni kodlash va uzatishni o'rgatish;
- chaqaruvni qabul qilish, ro'yxatga olish va tahlil qilishni o'rgatish;
- telefon orqali bemorning holatini baholash va birinchi yordam ko'rsatmalarini berishni;
- marshrutizatsiya va brigadalar ishini muvofiqlashtirish bo'yicha bilim va malakalarni chuqurlashtirish;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish;

- sogʻliqni saqlash boʻyicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni, feldsher va tez tibbiy yordam stansiyalari dispetcherlarni oʻz ish faoliyatida qoʻllay bilishni oʻrgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash koʻnikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- ogʻir ahvoldagi bemor hayotiga xavf tugʻdiruvchi holatlarni zudlik bilan aniqlashga yoʻnalgan holda yordam koʻrsatishga yondoshish;
- inson hayotiga xavf soluvchi xolatlarda bemorlarga tezkor tibbiy yordam chora tadbirlari koʻrsatish;
- koʻp uchraydigan asosiy patologik holatlarda va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish;
- hayot uchun xavfli shoshilinch holatlarni erta aniqlash va toʻgʻri brigada yoʻnaltirish boʻyicha mutaxassislik koʻnikmalarini rivojlantirish;
- telefon orqali bemorning holatini baholash uchun zarur boʻlgan savollar ketma-ketligi va klinik algoritmlarni oʻrgatish;
- favqulodda xodisalar sharoitida harakat kilish tartibi va tez tibbiy yordam koʻrsatish xizmatida tibbiyot muassasalari, ichki ishlar vazirligi muassasalari, yongʻin havfsizligi qismlari, FVV bilan oʻzaro hamkorlik taktikasi bilan tanishtirish;
- favqulodda vaziyatlar va ommaviy chaqiruvlarda dispetcherning toʻgʻri harakat algoritmini oʻrgatish;
- tibbiy-psixologik yordam koʻrsatishning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish;
- psixologik muloqot va kommunikatsiya koʻnikmalarini rivojlantirish, qiyin abonentlar bilan professional munosabat yuritishni oʻrgatish;
- stressni boshqarish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash, yuqori yuklama ostida toʻgʻri qaror qabul qilishni shakllantirish.

### **1.3. Taʼlim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

Oʻquv dastur boʻyicha Respublika tez tibbiy yordam markazi, Toshkent shahar filiali tez tibbiy yordam stansiyalaridada, tez tibbiy yordam boʻlimlarida faoliyat yuritayotgan oʻrta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yoʻriqnomalariga muvofiq, yaʼni mutaxassisligini *tasdiqlovchi xujjati* boʻlgan tez tibbiy yordam stansiyalari dispetcherlari uchun moʻljallangan.

### **1.4. Oʻquv dasturni oʻzlashtira olish uchun zarur boʻlgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Sogʻliqni saqlash tizimi va tez tibbiy yordam xizmatining asosiy vazifalarini bilish;
- favqulodda holatlar haqida umumiy tasavvurga ega boʻlish;
- tibbiy etika va deontologiyani amalda qoʻllay oladigan, shaxslararo muloqot koʻnikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis boʻlishi;
- telefon orqali aniqlik bilan, ravon va tushunarli muloqot qila olish;
- hayot uchun xavfli belgi va alomatlarni farqlay olish (infarkt, insult, nafas yetishmovchiligi, shok va boshqalar);
- saralash (triage) tamoyillarini tushunish;

- stress holatlarida tinch, aniq, bir maromda gapira olish;
- axborotni qisqa, loʻnda va toʻgʻri yetkazish;
- axborotni qabul qilish va tahlil qilish;
- operativ qaror qabul qilish;
- boshqa xizmatlar (FVV, IIB, Yongʻin xizmati) bilan hamkorlikda ishlay olish;
- axborot tizimlari bilan ishlay olish;
- stressga chidamlilik;
- telefon orqali birlamchi tibbiy maslahatlar berish;
- tez tibbiy yordam brigadalarini koordinatsiya qila olish;
- mutaxassisligi boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻlgan,uzluksiz oʻz malakasini oshirishga tayyor boʻlgan, oʻzgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan va unda olib boriladigan tadbirlarini oʻrganish xususiyatiga ega boʻlishi.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Mazkur dastur tez tibbiy yordam tizimida chaqiruvlarni qabul qilish, baholash va toʻgʻri yoʻnaltirish jarayonining samaradorligini oshirish zaruratidan kelib chiqadi. Aholi sonining koʻpayishi, yurak-qon tomir kasalliklari, travmalar va favqulodda holatlarning koʻpligi sababli “103” xizmatiga boʻlgan ehtiyoj ham oshmoqda. Aholi oʻrtasida shoshilinch holatlar koʻpayib borayotgani, axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor **koordinatsiya** talabi dispetcherlarning malakasini oshirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ushbu dastur tinglovchilarga operativ qaror qabul qilish, aniq muloqot, chaqiruvlarni toifalash va zamonaviy axborot tizimlarida ishlash kabi amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi va amaliyotidagi mavjud vaziyat oʻzgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 soat xaftada, 36 kredit).

### **1.7. Oʻqish shakli:**

- kunduzgi - oʻqish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - anʼanaviy oʻqish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi:** Mashgʻulotlar Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisidagi” 160-son buyrugʻi va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashgʻulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom boʻladi. Tushlik - 30 daqiqa. Kuniga 6 kreditdan, xaftasiga 36 kredit, 4 xaftada 144 kredit.

**1.9. Malaka oshirishdan soʻng:** oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Tez tibbiy yordam dispetcherlari” boʻyicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## 2.REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

### 2.1.Rejallashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- chaqiruvlarni kategoriyalash va marshrutlash kasbiy mahoratini ko'nikmalari shakllanadi;
- qaror qabul qilish jarayoni va resurslarni oqilona taqsimlash malakalari mukammallashadi;
- axborot tizimlaridan xavfsiz va samarali foydalanish, chaqiruvlarni ro'yxatdan o'tkazish, elektron hujjatlarni yuritish ko'nikmalari yangilanadi;
- favqulodda vaziyatlarda dispetcherlik jarayonini boshqarish, ko'plab chaqiruvlar oqimida ishlash va koordinatsiya qilish ko'nikmalari mukammallashadi;
- kasbiy muloqot, tibbiy etika va kommunikativ ko'nikmalar madaniyati shakllanadi;
- stressga chidamlilik va konfliktlarni boshqarish, murakkab vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash malakalari mukammallashadi;
- birlamchi tibbiy yordam bo'yicha zamonaviy bilimlar yangilanadi;
- tibbiy brigadalar va boshqa xizmatlar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi;
- aholiga telefon orqali boshlang'ich yordam bo'yicha yo'riqnoma berish va boshqa shoshilinch holatlarda yo'naltirish ko'nikmalari mukammallashadi.

## 3.DASTUR MAZMUNI

### 3. 1“Tez tibbiy yordam dispetcherlari” kursi o'quv rejasi

| №   | Modul va mavzular nomi                                                  | Kredit | Auditoriya mashg'ulotlari |                   | Seminar | Attestatsiya |
|-----|-------------------------------------------------------------------------|--------|---------------------------|-------------------|---------|--------------|
|     |                                                                         |        | Nazariy mashg'ulot        | Amaliy mashg'ulot |         |              |
| 1.0 | Kasbiy rivojlantirish moduli                                            | 32     | 18                        | 14                |         |              |
| 1.1 | Modul.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. | 4      | 4                         | -                 |         |              |
| 1.2 | Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.                               | 6      | 2                         | 4                 |         |              |
| 1.3 | Modul: Infekcion nazorat.                                               | 6      | 4                         | 2                 |         |              |
| 1.4 | Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat                  | 6      | 4                         | 2                 |         |              |

|            |                                                                                                                     |            |           |           |          |          |
|------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|-----------|-----------|----------|----------|
| 1.5        | Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik                                           | 10         | 4         | 6         |          |          |
| <b>2.0</b> | <b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>                                                                                  | <b>104</b> | <b>44</b> | <b>60</b> |          |          |
| 2.1        | Modul: Tez tibbiy yordam dispetcheri faoliyatining asoslari.                                                        | 6          | 2         | 4         |          |          |
| 2.2        | Modul: Aloqa tizimlari va zamonaviy dispetcher texnologiyalari.                                                     | 6          | 2         | 4         |          |          |
| 2.3        | Modul: Favqulodda vaziyatlar va ommaviy hodisalar paytida dispetcherning harakatlari.                               | 8          | 4         | 4         |          |          |
| 2.4        | Modul: Dispetcherlik xizmati.                                                                                       | 12         | 4         | 8         |          |          |
| 2.5        | Modul: Telefon orqali bemorning holatini baholash.                                                                  | 6          | 2         | 4         |          |          |
| 2.6        | Modul: Tez tibbiy yordam dispetcheri uchun tibbiy bilimlarning asoslari (infarkt, insult, jarohatlar va boshqalar). | 30         | 14        | 16        |          |          |
| 2.7        | Modul: Maxsus toifadagi bemorlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.                                        | 20         | 10        | 10        |          |          |
| 2.8        | Modul: Dispetcher faoliyatining psixologik jihatlari.                                                               | 6          | 2         | 4         |          |          |
| 2.9        | Modul: Kasbiy muloqot: nutqiy standartlar va kommunikativ ko'nikmalar.                                              | 10         | 4         | 6         |          |          |
| <b>3.0</b> | <b>Tanlov fanlar moduli.</b>                                                                                        | <b>4</b>   |           |           | <b>4</b> |          |
|            | <b>Attestatsiya</b>                                                                                                 | <b>4</b>   |           |           |          | <b>4</b> |
|            | <b>Jami:</b>                                                                                                        | <b>144</b> | <b>62</b> | <b>74</b> | <b>4</b> | <b>4</b> |

## **“Tez tibbiy yordam dispetcherlari” kursi o‘quv modullarining mazmuni**

### **1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

### **1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar**

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

1. -tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
2. - axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
3. - hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

### **1.3.Modul. Infeksion nazorat.**

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalanish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

### **1.4. Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat**

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-xarakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash.

Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish.

### **1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'rikni tashkil etish va aholini jalb etish.

## **2.0.Mutaxassislik fanlar moduli**

### **2.1 Modul: Tez tibbiy yordam dispetcheri faoliyatining asoslari.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam tizimi va dispetcherlik xizmatining tuzilishi. Tez tibbiy yordam dispetcherining kundalik faoliyati, vazifalar va kasbiy talablar bilan tanishtiradi. Fuqarolardan murojaatnomalar qabul qilish, tez tibbiy yordam xizmatida chaqiruvlarning shoshilinchligiga qarab joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish tartibi. Murojaat etuvchilar bilan muloqot o'rnatish, to'liq axborot olish va qayd etish jarayoni, aholi murojaatlariga tezkor va aniq javob berish tamoyillari. Bemorlar muammolarini aniqlash va tez tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish, bemor muammolarini bartaraf etilganlik xolatini baholash. Hujjatlarni yuritish tartibi, shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va himoya qilish. Dispetcherning kasbiy etikasi, mas'uliyati, kommunikativ ko'nikmalari, stressga bardoshlilik, keskin vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish. Tez tibbiy yordam tizimida dispetcherning o'rnini, uning brigadalar bilan o'zaro aloqasi, chaqiruvlarni toifalash (kategoriya berish) va marshrutlashning umumiy printsiplari.

## **2.2 Modul: Aloqa tizimlari va zamonaviy dispatcher texnologiyalari.**

Tez tibbiy yordam tizimida qo'llaniladigan aloqa vositalari va zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari. Dispatcherlik markazining texnik infratuzilmasi, aloqa kanallari (telefon, radioaloqa, raqamli platformalar), ma'lumot almashuv tizimlari va ularning xavfsiz ishlash tamoyillari. Dispatcherlik axborot tizimlari. ASU, ZOLL Dispatcher, Demed, HXGNOnCall dispatcher dasturlarining tushunchasi. Dispatcherlarning axborot tizimida ishlash ko'nikmalari, chaqiruvlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayd qilish, tahlil qilish, marshrutlash va tibbiy brigadalarga yetkazishning zamonaviy usullari. Shuningdek, GPS-monitoring, geolokatsiya, elektron xaritalar, onlayn kuzatuv tizimlari va tezkor boshqaruv dasturlarining amaliy qo'llanilishi. 103/105/112 yagona chaqiriqlar tizimi. Axborot tizimi bilan ishlashda xatoliklar va nosozliklar. ). Axborot tizimida dispatcher ishlashi: chaqiruvni ro'yxatga olish va marshrutlashtirish. 103/105/112 yagona chaqiriqlar tizimi. Axborot tizimi bilan ishlashda xatoliklar va nosozliklar.

## **2.3 Modul: Favqulodda vaziyatlar va ommaviy hodisalar paytida dispatcherning harakatlari.**

Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Insonlar orasida favqulotda vaziyatlar va shoshilinch xolatlarda o'z-o'ziga va bir-biriga yordam berishni targ'ib qilish. Favqulotda xolatlar turlari. Ularda umumiy extiyotkorlik choralari ko'rish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish. Tibbiy saralash (Triaj usuli) va evakuatsiya qilish. Tibbiy saralash bosqichlari. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Evakuatsiyani tashkil etish va jabrlanganlarni tibbiy tashishning xususiyatlari. Evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlari. Jabrlanganlarni ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash, tibbiy saralash, evakuatsiya qilish va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Favqulotda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha o'tkaziladigan chora-tadbirlar. Favqulotda xodisalar sharoitida tez tibbiy yordam stansiya dispatcherning va feldsherlik ko'chma brigadalarining ishlash tartibi. Favqulotda vaziyatlarda dispatcher javobgarligi va huquqlari Favqulotda vaziyatlar va chaqiriqlarning ommaviy kelib tushishi sharoitida dispatcherning faoliyati.

## **2.4 Modul: Dispatcherlik xizmati.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispatcherlik xizmatining tuzilishi, vazifalari va faoliyat jarayonlari bilan tanishtiradi. Tinglovchilar dispatcherlik markazining asosiy funksiyalari, chaqiruvlarni qabul qilish va qayta ishlash ketma-ketligi, aholiga ko'rsatiladigan tezkor xizmatning tashkiliy mexanizmlari haqida amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'ladilar. Modul davomida dispatcherning kundalik ish jarayoni, brigadalar o'rtasidagi o'zaro aloqa, chaqiruvlarni toifalash (kategoriya berish), ustuvorlikni aniqlash, resurslarni taqsimlash va chaqiruvni to'g'ri marshrutlash

tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, xizmatning uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan operativ boshqaruv, navbatchilik tartibi, ma'lumotlarni aniq va tezkor yetkazish qoidalari ham o'rganiladi. Mazkur modul tinglovchilarga dispetcherlik xizmatining mohiyati, uning tez tibbiy yordam tizimidagi o'rni, jarayonlarining muhimligi va samarali xizmat ko'rsatish uchun zarur ko'nikmalar haqida to'liq tasavvur beradi.

## **2.5 Modul: Telefon orqali bemorning holatini baholash.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispetcherining eng muhim vazifalaridan biri — telefon orqali bemorning ahvolini to'g'ri va tezkor baholash jarayoni bilan tanishtiradi. Modul tinglovchilarga hayot uchun xavfli belgilarni aniqlash, bemor yoki guvoh bilan samarali muloqot qilish va qisqa vaqt ichida eng muhim ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha asosiy ko'nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladi. Modul davomida dispetcherning savollar ketma-ketligi, standartlashtirilgan skriptlar bilan ishlash, shoshilinch holatlarda (infarkt, insult, hushdan ketish, nafas yetishmovchiligi, travma va boshqalar) telefon orqali dastlabki differensial baholash usullari yoritiladi. Shuningdek, murakkab, emotsional yoki vahimaga tushgan qo'ng'iroqchilar bilan ishlash tamoyillari, aniq, qisqa va tushunarli ko'rsatmalar berish bo'yicha amaliy ko'nikmalar ham o'rgatiladi. Modul dispetcherga chaqiruvni to'g'ri toifalash, ustuvorlik darajasini aniqlash va bemorga birinchi yordam bo'yicha ko'rsatmalarni telefon orqali darhol yetkazish imkonini beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

## **2.6 Modul: Tez tibbiy yordam dispetcheri uchun tibbiy bilimlarning asoslari (infarkt, insult, jarohatlar va boshqalar).**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispetcheri samarali va to'g'ri qaror qabul qilishi uchun zarur bo'lgan asosiy tibbiy bilimlar bilan tanishtiradi. Modulning maqsadi dispetcherga hayot uchun xavfli holatlarni telefon orqali erta aniqlash, to'g'ri savollar berish va chaqiruvni to'g'ri toifalash uchun yetarli darajada amaliy tibbiy tasavvur berishdir. Modul davomida quyidagi asosiy yo'nalishlar o'rganiladi: **Yurak-qon tomir kasalliklari:** o'tkir miokard infarkti, stenokardiya, yurak to'xtashi — ularning asosiy belgilari, telefon orqali tanish mumkin bo'lgan simptomlar, shoshilinch choralar. **Neyrologik o'zgarishlar:** insult, hushdan ketish, tirishishlar, falajlik — belgilarni tez tanish va to'g'ri savollar berish. **Nafas olish tizimi o'zgarishlari:** nafas yetishmovchiligi, astma xuruji, bo'g'ilish — nafas holatini baholash tamoyillari. **Travmalar va jarohatlar:** bosh miya jarohati, suyak sinishi, qon ketishlar, avtotransport hodisalari, balandlikdan tushish va boshqa shikastlanishlar. **Allergik reaksiya va anafilaksiya:** xavfli belgilar, darhol amalga oshirilishi kerak bo'lgan ko'rsatmalar. **Intoksikatsiyalar, zaharlanishlar:** zaharlanish turi, asosiy belgilari va kerakli savollar. **Pediatrik shoshilinch holatlar:** bolalardagi xavfli belgilarni kattalarnikidan farqlash. Modul dispetcherning tibbiy vaziyatni to'g'ri baholash, hayot uchun xavfli simptomlarni aniqlash, chaqiruv ustuvorligini

belgilash va bemorga telefon orqali amaliy ko'rsatmalar berish qobiliyatini mustahkamlaydi. Ushbu asosiy bilimlar dispetcherga brigadaga to'g'ri ma'lumot yetkazish va o'z vaqtida yordamni tashkil qilish imkonini beradi.

## **2.7 Modul: Maxsus toifadagi bemorlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispetcherining turli **maxsus toifadagi bemorlar** bilan ishlashda bilishi zarur bo'lgan kommunikativ, tibbiy va tashkiliy xususiyatlarni o'rgatadi. Bunday bemorlar bilan muloqot qilish va ularning ahvolini telefon orqali baholash alohida yondashuvni talab qiladi. Modulning maqsadi dispetcherga ushbu toifalar uchun zarur bo'lgan aniq, ehtiyotkor va professional aloqani yo'lga qo'yish ko'nikmalarini berishdir. Modul davomida tinglovchilar quyidagi maxsus guruhlar bilan ishlashning o'ziga xosliklarini o'rganadilar: **Bolalar (pediatriya):** yoshga mos savollar berish, ota-onalarning vahimasini kamaytirish, bola holatini tez aholashning asosiy belgilarini tanish. **Homilador ayollar:** homiladorlik davriga xos xavfli belgilar (qon ketish, qorin og'rishi, hushdan ketish, homila harakatlarining o'zgarishi), tug'ruq boshlanishi holatlarini telefon orqali aniqlash. **Keksalar va geriatriya bemorlari:** ko'p kasalliklar fonida rivojlanadigan murakkab holatlar, uyda yiqilishlar, xotira yoki eshitish bilan bog'liq cheklovlar. **Nogironligi bo'lgan shaxslar:** eshitish, ko'rish yoki nutqida cheklovi bo'lganlar bilan muloqot qilish usullari, qo'shimcha savollar va moslashtirilgan muloqot texnikalari. **qiluvchilar bilan tinchlantiruvchi muloqot va xavfsizlik tamoyillari.** **Homiylarsiz yoki yolg'iz bemorlar:** ahvolni mustaqil baholay olmaydigan yoki ko'rsatmalarni bajarishda qiynaladigan shaxslar bilan ishlash xususiyatlari. Modul tinglovchilarga maxsus toifadagi bemorlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga telefon orqali to'g'ri savollar berish, xavfli belgilarni tez aniqlash, aniq ko'rsatmalar berish va zarur bo'lsa ruhiy qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu modul dispetcherning kasbiy muloqot madaniyatini, empatiyasini va murakkab vaziyatlarda samarali aloqa qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

## **2.8 Modul: Dispetcher faoliyatining psixologik jihatlarini.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispetcherining ish faoliyatida uchraydigan psixologik xususiyatlar, stress va emotsional holatlar bilan ishlash tamoyillarini o'rgatadi. Dispetcherlik kasbi yuqori stress va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladigan vaziyatlarga boy bo'lgani uchun, modulning asosiy maqsadi tinglovchilarga ruhiy barqarorlikni saqlash, samarali muloqot qilish va ish jarayonini optimallashtirish ko'nikmalarini berishdir. Modul davomida quyidagi yo'nalishlar o'rganiladi: **Stressni boshqarish:** shoshilinch chaqiruvlar, favqulodda vaziyatlar va ko'p sonli murojaatlar bilan ishlashda ruhiy barqarorlikni saqlash. **Emotsional**

**barqarorlik:** qo'ng'iroq qiluvchi bemor yoki guvohning vahimasi, panikasi yoki agressiyasiga munosabatdabo'lish tamoyillari. **Konsentratsiya va diqqatni jamlash:** bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani boshqarish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish va xatolarni kamaytirish. **Empatiya va muloqot madaniyati:** bemorlar va ularning yaqinlari bilan telefon orqali samarali va hissiyotlarni hisobga olgan muloqot. **Psixologik xavfsizlik:** o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash, ish joyida psixologik charchash va professional burn-out (charchash)ning oldini olish usullari. Modul tinglovchilarga dispetcherlik faoliyatining psixologik jihatlarini tushunish, murakkab va shoshilinch vaziyatlarda samarali ish yuritish, shuningdek o'z ruhiy salomatligini saqlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

## **2.9 Modul: Kasbiy muloqot: nutqiy standartlar va kommunikativ ko'nikmalar.**

Ushbu modul tez tibbiy yordam dispetcherining **kasbiy muloqot ko'nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan bo'lib, samarali va aniq kommunikatsiya tamoyillari bilan tanishtiradi. Modul tinglovchilarga bemorlar, ularning yaqinlari va tibbiy brigadalar bilan telefon va boshqa aloqa vositalari orqali muloqot qilishda nutqiy standartlar va kommunikativ texnikalarni o'zlashtirish imkonini beradi. Modul davomida quyidagi jihatlar o'rganiladi: **1. Nutqiy standartlar:** dispetchering aniq, qisqa va tushunarli so'zlashuvi, telefon orqali savollarni ketma-ket berish, shoshilinch va xavfli vaziyatlarda og'zaki ma'lumotni aniq yetkazish. **2. Aktiv tinglash va tushunish:** bemor yoki guvohning aytganlarini diqqat bilan tinglash, asosiy ma'lumotlarni tez aniqlash va kerakli savollarni berish ko'nikmasi. **3. Emotsional intellekt va empatiya:** muloqot davomida ruhiy holatni hisobga olish, vahima va panikani kamaytirish, xavfsiz va tinchlantiruvchi so'zlarni tanlash. **4. Moslashuvchan kommunikatsiya:** turli yoshdagi, kasallikdagi yoki maxsus toifadagi bemorlar bilan ishlashda nutqni va uslubni moslashtirish, tushunmovchilik va xatoliklarni kamaytirish. Mazkur modul dispetchering kasbiy muloqot madaniyatini, samarali va xavfsiz aloqa ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** Respublika tez tibbiy yordam markazi

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom va boshqa

jihozlar.nazorat savollarining elektron ko‘rinishi – 30 ta, vaziyatli masalalar- 30 ta, test savollari 300 ta, imtihon biletlari 25 ta. Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriylar ko‘rgazma va qo‘llanmalar.

### **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI**

#### **4.3.1. Qonunchilik va me‘yoriy-xuquqiy xujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.
3. “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab –quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.03.2017 yildagi «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» PF-4985-son farmoni
7. «Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi va uning hududiy filiallarining Muvofiqlashtiruvchi-dispatcherlik xizmatlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari» dasturi 2017-yil 19-iyuldagi 526-son Vazirlar Mahkamasi qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 iyundagi “Aholiga Tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida PQ-283son Qarori.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “Shoshilinch tibbiy yordam xizmati faoliyati bo‘yicha nizomlar va yo‘riqnomalar”. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublika Shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi. “Tez tibbiy yordam dispatcherlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma”. – Toshkent.
3. Sog‘liqni saqlash vazirining 2017yil 31 mart 131-sonli bo‘yruq‘iga asosan “Tez tibbiy yordam chaqiruvlarini qabul qilishning dispatcherlik saralash bayonomalari”.
4. A. R. Abdullayev, B. B. Usmonov. ”Shoshilinch tibbiy yordam asoslari”. – Toshkent, 2019.
5. V.Ye. Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshchi.” 2010y.

6. Yu. Allayorov Yu. Tojiboev “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” Tashkent-2017 y.
7. D.M. Sabirov, A.Z. Gazizov “Birinchi tibbiy yordam” Toshkent-2017y.
8. V.N. To‘rakulov F.A. Qurbonov K.R. Tongotarova “Anesteziologiya va reanimatsiyada xamshiralik parvarishi. 2019 yil.
9. Amerika yurak assotsiatsiyasi (American Heart Association) birinchi yordam bo'yicha qo'llanma, jumladan “Yurakni qayta jonlantirish (CPR) bo'yicha tavsiyalar. 2020 yil .
10. European Resuscitation Council (ERC). Emergency Call Dispatch and Triage Guidelines.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. A. Nurmonov, B. Mengliyev Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: O‘qituvchi.
2. . N.I. Xo‘jaeva, A.Yu. Shoyusupova “Psixiatriya”, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, Toshkent 2008 y.
3. X.Q. Shodmonov, X.Sh. Eshmurodov. “Asab va ruhiy kasalliklar.” – O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent, 2012.
4. V. V. Frolkis « Gerontologiya asoslari». – Moskva: Nauka.
5. Allayarov Ya.N.”Akusherlik” Toshkent 2007yil.
6. K.L. Shagulyamova. “Pediatriya”. Toshkent, «Ilm ziyo»-2015
7. V.N. To‘rakulov F.A. Qurbonov “Xirurgiyada hamshiralik parvarishi” o‘quv qo‘llanma. 2019 yil.
8. X.A. Abduqodirov, Sh.Sh. Shovaxobov “ Yuqumli kasalliklar va bemorlar parvarishi.”
9. “Onalar hamda bolalarda havf omillarini aniklash bo‘yicha yuriqnomalar va beriladigan tavsiyalar” 2020 y. (YuNISEF)
10. Yuqumli kasalliklar hamshiralik ishi” – 2016 y. (YuNISEF)

### **8.4.3.3. Elektron ta’lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)  
[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)  
<http://www.medpoisk.ru/>  
<http://www.rusmedserv.com/>  
[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology)  
[www.medscape.com](http://www.medscape.com)  
[www.medi.ru](http://www.medi.ru)  
[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)  
[www.medland.ru](http://www.medland.ru)  
[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)  
[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru)

## **YaKUNIY ATTESTATSIYA**

### **5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar,o'tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash **Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi** «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.